

ESTRADA XONANDALIGINING O'ZIGA XOS JIHATLARI: OVOZ USTIDA ISHLASH VA IJRO TALABLARI

Urazaliyev Bobur Rajabovich

O'zbekiston davlat konservatoriyasi huzuridagi
Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada
san'ati instituti Iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot
faoliyatini tashkil etish sektori boshlig'i
<https://doi.org/10.5281/zenodo.16811529>

Annotatsiya: Mazkur maqolada estrada xonandaligining o'ziga xos jihatlari, xususan, ovoz ustida ishlash usullari va sahnaviy ijro talablari tahlil qilinadi. Shuningdek, ovoz ustida ishlashning nazariy va amaliy asoslari, ijro faoliyatida ovozning texnik va badiiy xususiyatlari, professional tayyorgarlikda nafas texnikasi, artikulyatsiya, rezonans, intonatsiya va sahna madaniyati bilan bog'liq jihatlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: estrada, ovoz, artikulyatsiya, intonatsiya, ijro, vokal texnika, sahna madaniyati, diafragmal nafas, emotsional ifoda, repertuar.

Аннотация: В данной статье анализируются особенности эстрадного вокального искусства, в частности, методы работы над голосом и требования к сценическому исполнению. Кроме того, рассматриваются теоретические и практические основы работы над голосом, технические и художественные особенности голоса в исполнительской деятельности, а также аспекты, связанные с профессиональной подготовкой: дыхательная техника, артикуляция, резонанс, интонация и сценическая культура.

Ключевые слова: эстрада, голос, артикуляция, интонация, исполнение, вокальная техника, сценическая культура, диафрагмальное дыхание, эмоциональная экспрессия, репертуар.

Abstract: This article analyzes the specific aspects of pop singing, in particular, methods of working on the voice and stage performance requirements. It also analyzes the theoretical and practical foundations of working on the voice, the technical and artistic characteristics of the voice in performing activities, aspects related to breathing technique, articulation, resonance, intonation, and stage culture in professional training.

Keywords: pop, voice, articulation, intonation, performance, vocal technique, stage culture, diaphragmatic breathing, emotional expression, repertoire.

Musiqiy madaniyat o'zining serqirraligi bilan ajralib turadi. Qo'shiqchilik san'ati qadim zamonlarda vujudga kelgan va hozirgi kunlarda ham o'z rivojini davom ettirayotgan ijodiyot turidir. Qo'shiq azal-azaldan insoniyat hayotida hamroh bo'lib kelgan va insonning ma'naviy va madaniy, g'oyaviy va axloqiy tarbiyasida bosh tarbiyachi rolini o'tagan. Bugun ham qo'shiq hayotimizda ma'naviy va madaniy, axloqiy tarbiyani joriy qiladigan asosiy omillardan biridir. Yangilanayotgan O'zbekistonimiz xalqining musiqiy madaniy hayotida estrada san'ati alohida o'rin tutadi. O'zbek estrada san'ati kundan-kunga rivojlanib, o'z muxlislari sonini ko'paytirib bormoqda. Bugungi kunda estrada nomi bilan yuritilayotgan musiqa namunalari tobora ko'plab tinglovchilar e'tiborini o'ziga jalb etmoqda. Bugungi kunda radio-televidenie hamda turli bayram tantanalari dasturlaridan keng o'rin olgan bu turdagi musiqa nafaqat yoshlarni, balki

jamiyatimizning turli yoshdagi millionlab vakillari ongi va ma'naviyatiga sezilarli darajada ta'sir o'tkaza boshladi.

Yoshlarning ma'naviy dunyosini shakllantirishda tarixiy va milliy ma'naviy omillar bilan birga vatanparvarlik ruhidagi qo'shiqlarning kuchi va ahamiyati kattadir.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, davlatimiz rahbariyati tomonidan qo'shiqchilik san'ati rivojiga, ayniqsa Vatanparvarlik ruhidagi qo'shiqlarga katta e'tibor berilmoqda. 1996-yildan beri O'zbekistonimiz bo'ylab keng qanot yozgan "O'zbekiston – Vatanim manim", "Yagonasan, muqaddas vatan", "Sharq taronalari" Xalqaro musiqa festivali kabi tanlovlar, Mustaqillik, Navruz va boshqa davlat konsert tadbirlari dasturiga kiritilgan vatanparvarlik ruhidagi qo'shiqlar ijrosi shuning dalilidir. Oxirgi yillar ichida o'zbek ijodkorlari tomonidan minglab Vatanni, tinch hayotni madh etuvchi qo'shiqlar yaraldi. Bugungi kunda har bir professional xonandaning repertuaridan Vatan mavzusidagi qo'shiq o'rin olgan.

Hozirgi kunda estrada xonandalari uchun faqatgina chiroyli ovozga ega bo'lish yetarli emas. Ular sahnada o'zlarini erkin tutish, ovoz diapazonidan to'g'ri foydalanish, nafasni boshqarish kabi ko'plab jihatlarga e'tibor qaratishlari zarur hisoblanadi. Milliy estrada san'atining rivojlanishi bilan ovoz ustida ishlash texnologiyalari ham takomillashib bormoqda. Shuni unutmaslik kerakki, texnologik yutuqlar estrada xonandasining tabiiy ovoz madaniyatini o'rnini bosa olmaydi. Har bir xonanda ovoz imkoniyatlarini chuqur o'rganib, uni rivojlantirish yo'lida izlanishi va ijro jarayonida his-tuyg'ularni jonli yetkazish san'atini o'zlashtirishi lozim. Estrada xonandasi sahnada tomoshabinlarga jonli ijro orqali chinakam zavq ulashishi, har bir ijroda o'ziga xoslik hamda samimiylilikni namoyon qilish kerak.

Estrada xonandaligi o'ziga xos texnikalar, ijro uslublari va sahnadagi san'atni birlashtirgan musiqiy janr sifatida shakllangan. U bugungi kunda nafaqat musiqa, balki ijtimoiy va madaniy jarayonlarda ham muhim rol o'ynaydi. Milliy estrada san'ati XIX asrning oxirlarida va XX asrning boshlarida rivojlana boshladi. Dastlab, estrada xonandaligi teatr va kino san'ati bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ular orasida o'zaro ta'sirlar mavjud edi. XX asrning o'rtalariga kelib, estrada xonandaligi ommaviy madaniyatning ajralmas qismiga aylandi. Ayniqsa, pop-musiqa va rok-janrlarining ommalashishi xonandalarning sahnada o'zlarini ifoda etish usullarini yangiladi. Bugungi kunda estrada xonandaligi zamonaviy texnologiyalar, globalizatsiya va raqamli platformalar yordamida yangi bosqichga o'tdi. Xonandalar musiqiy kariyeralarini faqat sahnada emas, balki ijtimoiy tarmoqlar, YouTube Instagram va boshqa raqamli platformalarda ham davom ettirmoqdalar.

Ovoz insonning eng asosiy ifoda vositalaridan biri hisoblanadi. U nafaqat muloqot uchun, balki ijodiy faoliyat — xususan, sahna san'ati, qo'shiqchilik va pedagogik faoliyatda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Har qanday sahnaviy yoki musiqiy ijroning muvaffaqiyati, ko'p jihatdan, ovoz sifatiga va uni to'g'ri boshqara olish qobiliyatiga bog'liq. Ovoz ustida ishlash — bu faqatgina ovozni baland yoki yoqimli qilish emas, balki uni ongli ravishda boshqarish, tanlangan yo'nalishga mos tarzda shakllantirish demakdir.

Ovoz ustida ishlashning texnik yo'nalishlari:

Diafragmal nafas olish: **Diafragma** – bu ko'krak qafasi va qorin bo'shlig'ini ajratib turuvchi mushakli parda bo'lib, asosiy nafas olish mushagidir. Nafas olish chog'ida diafragma pastga harakatlanadi, o'pka hajmini kengaytiradi, bu esa havo kirishini ta'minlaydi. Inson organizmidagi eng muhim hayotiy funksiyalardan biri – bu nafas olishdir. U sahna ijrosi, vokal san'ati, sport faoliyati va psixologik boshqaruvda muhim rol o'ynaydi. Oddiy nafas olishda asosiy ishni qovurg'a mushaklari bajaradi, havo yuzaki tortiladi, va nafas yengil, ammo qisqa

muddatli bo'ladir. **Diafragmal nafas olishda** esa nafas chuqur, barqaror, erkin va nazoratli kechadi. Bu nafas usuli fonatsiya (ovoz chiqarish), sport harakatlari va psixologik barqarorlik uchun afzaldir.

Artikulyatsiya va talaffuz: Nutq insonning eng muhim ijtimoiy-kommunikativ vositasidir. Uning to'g'ri, tushunarli va ifodali bo'lishi esa artikulyatsiya va talaffuzga bevosita bog'liq. **Artikulyatsiya** — bu nutq tovushlarini hosil qilishda ishtirok etuvchi organlarning (til, lab, tanglay, jag') faoliyatidir. Ya'ni, artikulyatsiya – bu tovushlar hosil qilishdagi fiziologik harakatlar majmui. To'g'ri artikulyatsiya tovushlarning aniq, ravon va eshitilishi oson bo'lishini ta'minlaydi. Artikulyatsiya bu fiziologik jarayon, talaffuz esa fonetik-adabiy natijadir. To'g'ri artikulyatsiyasiz to'g'ri talaffuz bo'lmaydi.

Rezonans va tembr: Ovoz tembrini shakllantirishda rezonator bo'shliqlarning roli katta. Bosh rezonatori (peshona, burun, bosh suyagi bo'shliqlari) va ko'krak rezonatori ovozni boyitadi, chuqurlashtiradi. Tembr ijrochini boshqa ijrochilardan ajratib turadigan ovoz sifatidir va individual xususiyatga ega.

Intonatsiya va nutq ohangi: Intonatsiya — bu so'z yoki gapning ma'no-yukiga mos ovoz ohangi. Badiiy ijroda hissiyot, ruhiy holat, xarakter yaratishda intonatsiya hal qiluvchi ahamiyatga ega. Vokal san'atida ham ohang, frazalash, dinamik o'zgarishlar intonatsion vositalar orqali amalga oshiriladi.

Zamonaviy Estrada ijrochiligida texnologiyalarning o'rnini muhim va katta o'rin tutadi. Hozirgi kunda ovoz texnologiyalari orqali xonandaning ijrosi mukammallashmoqda. Mikrofon texnikasi turli akustik va raqamli vositalar yordamida ijroni yanada ta'sirchan qilish mumkin. Texnologiya faqat yordamchi vosita bo'lib, estrada xonandasi ovoz madaniyatini tabiiy rivojlantirishi va jonli ijroni mukammallashtirishi lozim hisoblanadi. Xonanda ijro paytida nafaqat qo'shiq kuylaydi, balki tomoshabin bilan bog'lanadi, ularning kayfiyatiga ta'sir o'tkazadi va ichki dunyosini ochib beradi. Bu esa estrada san'atining muhim xususiyatlaridan biridir. Estrada san'ati – bu har bir inson qalbiga yo'l topa oladigan musiqiy ifoda san'atidir.

Xulosa: Estrada xonandasi zamonaviy san'atning ko'p qirrali vakilidir. U vokal texnikasi, sahna madaniyati, jismoniy tayyorgarlik va ijodiy yangilikka intilish jihatidan doimiy rivojlanishda bo'lishi lozim. Ovoz ustida muntazam ishlash va ijro talablari estrada san'atining yuksak darajada ifodalanishiga xizmat qiladi.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Y.Torayev «O'zbek Estrada xonandaligi» Toshkent 2004-yil
2. A. Erkinov, (2011). O'zbek estrada musiqasi va uning rivojlanish tarixi. Tashkent: "Navruz" nashriyoti.
3. S.Tursunov,(2015). O'zbek estrada xonandalari va ularning madaniy roli. Tashkent: "Adabiyot" nashriyoti.
4. Murodov, R. (2018). O'zbek estradasining rivojlanishi va zamonaviy tendensiyalari. Tashkent: Musiqqa nashrlari.
5. Karimov, B. (2020). O'zbek xalq musiqasi va estrada: tarixiy va madaniy aspektlar.